



MARKAZIY OSIYODAGI AYRIM MAMLAKATLARDA ISLOMIY BANK TIZIMI QONUNCHILIK ASOSINI YARATISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

PhD **Jo'rayev Botirxo'ja**
"Uzbek Leasing International AO"
lizing kompaniyasi
ORCID: 0000-0002-5630-5853
uzleasing@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada jahon moliya bozorida o'z o'rniga ega bo'lib borayotgan va barqaror o'sish sur'atlarini namoyon etgan islomiy banklar uchun qonunchilik asosini yaratishning ayrim mamlakatlardagi tajribasi o'ziga xos jihatlari ko'rib chiqilgan. Davlat tuzilishi O'zbekistonga yaqin bo'lgan, demokratik tizimni iroda qilgan Tojikiston hamda Qozog'iston singari qo'shni davlatlar hamda bu boradagi jahon tajribasiga doir ilmiy mulohazalar bayon etilgan. Islomiy bank qonunchilik asosini yaratishga kirishgan mamlakat e'tibor berishi lozim bo'lgan ayrim nuqtalar yoritib berilgan. Yetakchi mamlakatlarda qonunchilikka kiritilgan bu boradagi o'zgarishlar qanday samara berayotgani tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: islomiy moliya, islomiy banklar, ribo, moliya bozori, investitsiyaviy depozit, sherikchilik, islomiy kredit, islomiy darcha, qonunchilik, ijara, islomiy kredit tashkilotlari.

ОСОБЕННОСТИ СОЗДАНИЯ ПРАВОВОЙ ОСНОВЫ ИСЛАМСКОЙ БАНКОВСКОЙ СИСТЕМЫ В ОТДЕЛЬНЫХ СТРАНАХ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

PhD **Жўраев Ботирхўжа**
Лизинговая компания
"Uzbek Leasing International AO"

Аннотация: В данной статье рассматриваются уникальные аспекты опыта некоторых стран по созданию правовой базы для исламских банков, которые завоевали своё место на мировом финансовом рынке и показали стабильные темпы роста. Представлены научные комментарии к опыту соседних стран, таких как Таджикистан и Казахстан, чья система государственного управления близка к Узбекистану и которые хотят демократического строя. Выделены некоторые моменты, на которые следует обратить внимание стране, приступившей к созданию правовой базы исламского банкинга. Проведено исследование влияния законодательных изменений в ведущих странах.

Ключевые слова: исламские финансы, исламские банки, ростовщичество, финансовый рынок, инвестиционный вклад, партнерство, исламский кредит, исламское окно, законодательство, иджара, исламские кредитные организации.

FEATURES OF CREATION OF A LEGAL FRAMEWORK FOR THE ISLAMIC BANKING SYSTEM IN SELECTED CENTRAL ASIA COUNTRIES

PhD **Botirhoja Jurayev**

Leasing company "Uzbek Leasing International AO"

Abstract: This article examines the unique aspects of the experience of some countries in creating a legal framework for Islamic banks, which have gained their place in the global financial market and have shown stable growth rates. Scholarly commentary is presented on the experiences of neighboring countries such as Tajikistan and Kazakhstan, whose systems of government are similar to those of Uzbekistan and which want a democratic system. Some points are highlighted that should be paid attention to by a country that has begun to create a legal framework for Islamic banking. A study was conducted of the impact of legislative changes in leading countries.

Key words: Islamic finance, Islamic banks, usury, financial market, investment deposit, partnership, Islamic credit, Islamic window, legislation, Ijarah, Islamic credit organizations.

Kirish.

Islomiy bank tizimi – islom fiqhi yoki shariat qonunlari asosida faoliyat yuritish va ishlash tamoyiliga ega bank tizimidir. Ya'ni bankning barcha amaliyotlari, masalan, depozit omonati yoki moliyalashtirish bilan bog'liq amaliyotlar xam shariat tamoyillariga muvofiq bo'lishi lozim. Bu bankning boshqa amaliyotlari: pul o'tkazmalari, kafolat xatlari, akkreditivlar va chet el valyutasini sotish kabi amaliyotlariga nisbatan xam o'z ta'sirini ko'rsatadi. Islomiy banklarning an'anaviy banklardan farq qiladigan eng asosiy jihati ular amaliyotlarida islomda man qilingan – ribo (sudxo'rlik) unsurlarining mavjud emasligidir (Xaron, Azmi, 2014).

Bank tizimi o'zining vositachilik vazifalarini bajarish yo'lida, jamiyatdagi moliyaviy resurslarni jalb etish va ularni qarz mablag'i sifatida qayta yo'naltirish orqali, iqtisodiy taraqqiyotni rag'batlantirishda muhim rol o'ynaydi. Islomiy banklar ham innovatsion moliyalashtirish usullarini o'ziga jo etib, jahon moliya bozorida o'z o'rniga ega bo'lib bormoqda. Islomiy moliyaning eng yirik bo'g'ini sanalgan islomiy bankchiligi ham an'anaviy bank tizimining muqobili sifatida yashovchanligini ko'rsatdi va bozordagi o'z ulushini muttasil oshirib bormoqda. Ularning faoliyati an'anaviy banklardan butkul farq qiladi, islomiy banklar moliyaviy vositachi va savdo agenti sifatida ham ish olib boradi. An'anaviy banklarga nisbatan ishlab chiqarish va vositachilik faoliyatiga o'ziga xos kreativ yondashuvi, islomiy banklarning iqtisodiy jihatdan samarali ekanligi musulmon iqtisodchilar tomonidan ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Islomiy banklarning savdodagi sherik sifatida o'z mijozlari bilan munosabati voqelikda iqtisodiy faoliyatni rag'batlantiradi, bu iqtisodiy o'sish uchun muhim omillardan hisoblanadi.

XX asrning yakuniga kelib, islomiy banklarning barqaror sur'atlarda rivojlanishi moliyaviy dunyoda yangi munozaralarni paydo qildi. Bir nechta tadqiqotlar islomiy banklarning samarali va barqaror ekanligi, aktivlari sifati yuqoriligi, xarajatlar va kredit xatarini kamaytirish nuqtai-nazaridan samaraliroq ekanligini ko'rsatdi.

Adabiyotlar sharhi.

XX asrning ikkinchi yarmida jahon moliya bozorida bank xizmati ko'rsatishning an'anaviy shaklidan farqli bo'lgan islomiy bank xizmatlari taqdim etildi. Dastlabki islomiy bank Misrdagi "Mit Gamr" jamg'arma banki bo'lib, u 1963-yilda o'z faoliyatini boshladi. Bu islomiy bankchilik tarixidagi eng muhim voqealardan biri bo'ldi. Bank jamg'arma va kredit hisob varaqlarini ochish, hissadorlik kapitalida ishtirok etish, bevosita investitsiyalar va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish bo'yicha o'z xizmatlarini taklif eta boshladi.

Gieraths, Christine va Rodney Wilson o'zlarining "Pokiston: Asosiy ishtirokchilar va islomiy moliya bozorida moliyaviy mahsulotlarni islomiyashtirish jarayonining yakuni" (1990) deb nomlangan maqolada "resurslar erishib bo'lmaydigan va taqchil sharoitda islomiy bank faoliyati nazariy bazasini shakllantirish va amalda qo'llash tavsiyalarini ishlab chiqish eng birinchi galdagi vazifa bo'lib qoldi. Nazariy baza va tavsiyalarni ishlab chiqish musulmon olimlari va iqtisodchilari qo'lida edi. Ko'p holatlarda islom huquqini yaxshi tushunadigan ulamolar iqtisodchi emas va aksincha edi" deya davr murakkabliklarini bayon etgan.

Ali Muazzam va John Presley (1988) "Islomiy moliya muassasalari safida islomiy bankning tarkibi" nomli maqolasida Saudiya Arabistonida islomiy bank tuzish g'oyasi qirolning shaxsiy tashabbusi bilan amalga oshgani, Islom hamkorlik tashkilotini tashkil etish tashabbusi ham aynan shu shaxsga tegishli ekani, a'zo-mamlakatlar ribodan holi bo'lgan moliyalashtirish muassasalari tuzishlari lozimligi bayon qilingan.

Connors Jane va Chibli Mallat (1988) "Malayziyaning islomiy moliya tizimidagi yo'li" nomli nashr etilgan maqolasida Malayziya hukumati huzuridagi maxsus qo'mita oldiga qo'yilgan bir qancha vazifalar haqida so'z yuritilgan. 1982-yildan boshlab mamlakatda faoliyati shariat tamoyillariga muvofiq keladigan islomiy bank tuzilishi lozimligi; islomiy banklar 1965-yildagi "Kompaniyalar to'g'risida"gi qonun himoyasidagi kompaniya sifatida ro'yxatdan o'tkazilishi shartligi; 1973-yilda qabul qilingan "Bank faoliyati to'g'risida"gi qonun islomiy banklarga tatbiq etilmaganligi sababli, 1982-yildagi "Islomiy bank faoliyati to'g'risida"gi yangi qonunga islomiy banklarni nazorat qilish va ruxsatnoma berish masalalari kiritilishi lozimligi; yangi qonun bo'yicha Malayziya Markaziy banki nazorat va tartibga solish imtiyozli huquqiga ega bo'lishi va boshqa muhim masalalar ko'rib chiqilgan.

Shuningdek, mamlakatimizda islom sug'urtasi bo'yicha Abdurahmonov (2020-2024) sug'urta bozori va uning iqtisodiy ko'rsatkichlarini tahlil qilgan, kredit tashkilotlariga sug'urta xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha tadqiqotlar olib borgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolani tayyorlashda xalqaro nashrlar va hisobotlarda chop etilgan turli ilmiy maqolalar, asarlar, ma'lumotlar va sharhlardan foydalanilgan. Ayrim mamlakatlar qabul qilingan qonunchilik hujjatlari atroflicha tahlil etilgan. Ushbu ma'lumotlarning aksariyati islomiy bankchilik, uning huquqiy asosini yaratish orqali tizimni yangi darajaga olib chiqishga aloqador hisoblanadi. Tadqiq etilgan ma'lumotlar asosida ilmiy taxmin va xulosalar shakllantirilgan. Foydalanilgan statistik ma'lumotlar ilmiy usullar bilan umumlashtirilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi

2022-yilda ham islomiy bank aktivlari o'tgan yilga nisbatan 13%ga o'sdi hamda islomiy moliya aktivlarining 72% i aynan shu sektorga to'g'ri keldi.

Jadvalda jahonning yetakchi 10 mamlakati islomiy bank aktivlari borasida ma'lumotni ko'rish mumkin. Yetakchi mamlakatlar islomiy bank aktivlari tizimli ko'rinish olgan (Eron, Saudiya Arabistoni, BAA) hamda ko'lamli miqyoslarni tashkil etmoqda. Jahonning 100 eng yirik banklari sirasiga 40 ta islomiy banklar kirishi bejiz emas, albatta.

Bugungi kunda Qozog'iston Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasida islomiy bank faoliyati yetakchisi deb ayta olamiz. 2024-yil 1-may holatiga islomiy bank aktivlari salmog'i bank sektori aktivlari hajmining 0,4%ini yoki 195 mlrd.tengeni, kredit portfeli ulushi esa 0,4%ni yoki 126 mlrd.tengeni tashkil etdi. Markaziy Osiyo davlatlaridagi islomiy moliyaning 68% ulushi aynan Qozog'istonga to'g'ri keladi⁴

Qozog'iston Markaziy Osiyoda islomiy bankchilik bo'yicha qonunchilik asosini yaratgan dastlabki mamlakat bo'ldi. Qonunga ko'ra, islomiy bank — vakolatli tashkilot ruxsatnomasi asosida bank faoliyatini amalga oshiruvchi ikkinchi darajadagi bankdir. Islomiy bank

⁴<https://kapital.kz/finance/127178/kazakhstanskim-bankam-mogut-razreshit-otkryvat-islamskiy-okna.html>

qonunchiligini yaratish mavjud “Bank va bank faoliyati to‘g‘risida”gi qonunga qo‘shimcha va o‘zgartirish kiritish orqali amalga oshirildi(12.02.2009-yildagi №133-IV raqamli qonunga ko‘ra). Qonunning alohida bobi islomiy banklarni tashkil etish va ular faoliyatini yuritish xususiyatlariga bag‘ishlangan (ҚОНУН, 2009).

1-jadval

2022-yilda yetakchi mamlakatlar bo‘yicha islomiy bank aktivlari⁵

Mamlakatlar	Aktivlar(mlrd.dollarda)
Eron	1312
Saudiya Arabistoni	723
Malayziya	278
BAA	213
Quvayt	188
Qatar	142
Bahrayn	96
Turkiya	63
Bangladesh	52
Indoneziya	46

Qonunda islomiy bank foiz ko‘rinishida daromad olishga, investitsiyaviy depozit qaytarilishini yoki u bo‘yicha daromad olishni kafolatlashga, tamaki ishlab yoki uni sotish, alkogol mahsulotlari, qurol-yaroq va o‘q-dori ishlab chiqarish, qimor biznesi hamda islomiy moliyalashtirish bo‘yicha kengash man etgan boshqa tadbirkorlik shakllarini moliyalashtirishga haqli emasligi belgilab qo‘yilgan.

Qonunda islomiy bankda amalga oshiriladigan amaliyot va bitimlarni islomiy moliya talablariga muvofiqligini aniqlaydigan kengash faoliyatini tuzish majburiyigi belgilab qo‘yilgan. Shuningdek, qonunning alohida moddasida islom banklari nizomiga bo‘lgan qo‘shimcha talablar o‘rnatilgan: unda islomiy bank faoliyati maqsadlari hamda kengashni tuzish tartibi, kengash a‘zolariga bo‘lgan talablar, uning vakolatlari, vazifalari ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak. Demak, bundan islomiy bank faoliyati ham an‘anaviy banklar kabi mamlakatning ikkinchi darajadagi banki sifatida qonun bilan tartibga solinishi hamda faoliyat taqozosiga ko‘ra, o‘zigagina xos bo‘lgan alohida tarkiblarni tuzish bilan olib borilishi shart ekanini xulosa qilish mumkin. 2-jadvalda mamlakat islomiy bank qonunchiligi doirasida, islomiy bankning bank va boshqa amaliyotlarini an‘anaviy bank amaliyotlari bilan taqqoslama ma‘lumotlar berilgan.

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, faqat bank hisob varaqlarini yuritish amaliyoti har ikki tizimda bir-biriga o‘xshab ketadi. Qolgan barcha islomiy bank amaliyotlari tarkibi va mohiyati jihatidan an‘anaviy bank amaliyotidan butkul farqli hisoblanadi hamda o‘ziga xos, noyob amaliyotlar sanaladi. Shu bilan birga ikki tizimni o‘zaro yaqinlashtiradigan bir jihat bor – bu an‘anaviy banklar mijozlari uchun ular tarkibida “islomiy darcha”larni ochish imkoni mavjudligidir. Aksincha, islomiy banklar tarkibida an‘anaviy bank amaliyotlarining biror-bir elementi bo‘lishi mumkin emas, bu islomiy banklarni tashkil etish maqsadlariga ham muvofiq kelmaydi.

Qonunda an‘anaviy bankni ixtiyoriy ravishda islomiy bankka aylantirishga doir alohida bob kiritilgan. Bank faoliyatini islomiy bank yo‘nalishiga o‘tkazish bank hissadorlari umumiy yig‘ilish qaroriga ko‘ra, vakolatli tashkilot ruxsatnomasi bilan amalga oshiriladi.

⁵<https://api.zawya.atexcloud.io/file-delivery-service/version/c:NW14OWQ5MjctNWQ3NS00:NWM3MjBmN2ItYjNjMS00/IFDI%202023%20Report%20-%20Nov%2030.pdf>

Mazkur qonunda bank faoliyatini islomiy bankka aylantirish bosqichlari, tadbirlar rejasi, o'tkazish jarayonida bank faoliyati, adliya organlarida qayta ro'yxatdan o'tkazish kabi qadamlar bo'yicha ishlar batafsil ko'rsatib o'tilgan.

Tojikiston Respublikasi prezidenti tarafidan 2014-yilning 26-iyuli kuni mamlakat parlamenti qabul qilgan "Islomiy bank faoliyati to'g'risida"gi qonun imzolanishi bilan Tojikiston ham islomiy bankchilik bo'yicha o'z qonunchiligini yaratdi (Закон, 2014).

2-jadval

Islomiy bankning bank va boshqa amaliyotlarini an'anaviy bank amaliyotlaridan tafovutli jihatlari bo'yicha taqqoslama ma'lumot

Qonunchilik bo'yicha islomiy bank amaliyotlari mazmuni	Islomiy bank amaliyotlari xususiyatlari	An'anaviy bank amaliyotlari xususiyatlari	Tafovutlari
Foizsiz depozitlarni qabul qilish va bank h/v ini yuritish	Foizsiz depozitlar islomiy banklarning o'zigagina xos	Faqat bank h/v ini yuritish monand	Farqli
Investitsiyaviy depozitlarni qabul qilish	Islomiy banklarning o'zigagina xos	Mavjud emas	Farqli
Bankning qarzga doir amaliyotlari	Muddatlilik, qaytarishlilik va ustama olmaslik shartlari bilan beriladi	Muddatlilik, to'lovlilik, qaytarishlilik, maqsadlilik, ta'minlanganlik asosida beriladi	Farqli
Ishlab chiqarish va savdo amaliyotini sherikchilik asosida moliyalashtirish	Sherikchilik asosida foyda va zararni taqsimlash orqali moliyalashtiriladi	Mavjud emas	Farqli
Savdo vositachisi sifatida tijorat kreditini berish	Tovarni keyinchalik uchinchi shaxsga sotishni taqiqlash yoki bunga ruxsat berish orqali	Savdo vositachisi bo'la olmaydi, savdo faoliyati uchun foiz asosida kredit beradi	Farqli
Ijara(lizing) asosida investitsiyaviy faoliyat	Ijara shartnomasi hamda alohida oldi-sotdi shartnomasi tuzish asosida	Lizing bitimi tuzish orqali, oldi-sotdi bitimi lizing bitimining tarkibiy qismi bo'ladi	Farqli
Islomiy bank amaliyotini amalga oshirishda agentlik faoliyati	Islomiy bank ishonchli boshqaruvchi sifatida ayrim vakolatlarga ega bo'ladi	Mavjud emas	Farqli

Manba: «Bank va bank faoliyati to'g'risida"gi QRning qonuni(adilet.zan.kz/rus/docs/Z950002444. 31.08.1995 №2444 (o'zgarish va qo'shimchalar bilan)) asosida muallif ishlanmasi.

Mazkur qonunda "islomiy bank faoliyati", "islomiy moliyalashtirish tamoyillari", "islomiy bank faoliyati standartlari", "islomiy kredit tashkilotlari", "islomiy bank", "islomiy bank xizmatlari bo'yicha Maslahat kengashi", "islomiy moliyaviy xizmatlar bo'yicha qo'mita" va boshqa eng muhim tushunchalarga ta'rif berilgan. Shuningdek, an'anaviy bank tizimida mavjud bo'lmagan, islomiy banklarning o'zigagina xos bo'lgan "investitsiyaviy hisob varaq", "islomiy kredit", "islomiy depozit yoki jamg'arma" amaliyotlari hamda "daromad yoki foyda", "prudensial me'yorlar", "ijara" kabi atamalarga batafsil tavsiflar bayon etilgan. Atamalar masalasi tushunchalarning amaliyotda ishlatilishi va adabiyotda qo'llanishi boisidan ham

ahamiyatli hisoblanadi, sohaga xos bo'lgan mazkur atamalar ilmiy hamjamiyat tomonidan ijobiy qabul qilinadi hamda ikki yoqlama talqin etilishni oldini oladi.

Qonunda Tojikiston Respublikasining islomiy bank faoliyati to'g'risidagi qonunchiligi mamlakat konstitutsiyasiga hamda ushbu qonundan va Tojikistonda e'tirof etilgan xalqaro me'yoriy hujjatlar, boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarga asoslanishi alohida ta'kidlangan, bizning fikrimizcha bu o'ta muhim qadam hisoblanadi. Chunki, xalqaro amaliyotda ham biron-bir mamlakatda islomiy bank faoliyati bo'yicha qonun qabul qilinishi boshqa qonunchilik hujjatlarini (fuqaroviy, soliq, bojxona, bank faoliyatiga oid va h.k.) mazkur qonunga muvofiqlashtirish lozimligini anglatadi hamda islomiy banklarning faoliyat boshlashi konstitutsiya nizomlaridan chetda bo'lmasligini, islomiy bank xizmatidan foydalana olish huquqi fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqi ekanligining yorqin ifodasi hisoblanadi.

Tojikistonda islomiy bank amaliyotlari va islomiy kredit tashkilotlarining boshqa bitimlari an'anaviy bank tizimi bajaradigan bank amaliyotlariga o'xshab ketadi: islomiy kredit tashkilotlari amalga oshiradigan islomiy bank amaliyotlari depozitlarni qabul qilish, jismoniy yoki yuridik shaxslarning investitsiyaviy yoki jamg'arma hisob-varaqlarini yuritish, mijozlarga hisob varaq ochish va xizmat ko'rsatish, kassa amaliyotlarini o'tkazish, hisob va mablag' o'tkazish amaliyotlarini bajarish shular jumlasidandir. Shuni ta'kidlab o'tishimiz lozimki, islomiy banklar amalga oshiradigan amaliyotlar mamlakat Milliy banki (regulyator) ning me'yoriy-huquqiy hujjatlariga hamda islomiy moliyalashtirish qoidalariga muvofiq bo'lishi kerak.

Mamlakatda islomiy bank faoliyatini olib boruvchi kredit tashkilotlari Milliy bankning ruxsatnomasiga ega bo'lishlari lozim. Faoliyat shakllariga berilgan ruxsatnoma faqat tegishli tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan islomiy kredit tashkilotlariga beriladi. Islomiy bank amaliyotlarini amalga oshirish tartibi islomiy bank faoliyati standartlari bilan aniqlanadi. Demak, bu yerda islomiy banklarni tartibga solish bo'yicha Milliy bank muvofiq tarkibi islomiy kredit tashkilotlari uchun aniq standartlarni ishlab chiqishi, unga rioya etishni talab etishga vakolatli ekanini xulosa qilishimiz mumkin. Boshqacha aytganda, islomiy banklar faoliyati nafaqat regulyator tomonidan tartibga solinadi, balki ularning bank amaliyotida ishlatiladigan standartlar Milliy bank tomonidan amaliyotda qo'llash uchun takomillashtirib boriladi. Bu esa xalqaro amaliyot tajribasini o'rganish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Qonunda islomiy kredit tashkilotlari faoliyatining xususiyatlari alohida ko'rsatib o'tilgan. Islomiy kredit tashkilotlari o'z mijozlariga islomiy moliyalashtirish tamoyillariga asoslangan bank amaliyotlari, unga daxldor xatarlar xususiyati haqida tushuntirishlar olib borishga majburligi belgilab qo'yilgan. Bunga mijozlar orasida keng targ'ibot ishlarni olib borish, o'quv dasturlarini ishga tushirish, ommaviy axborot vositalaridagi chiqishlar orqali erishiladi.

Qonun talabiga ko'ra islomiy kredit tashkilotlari:

- a) foiz ko'rinishidagi daromad undirish;
- b) investitsiyaviy depozit yoki u bo'yicha daromadlarni qaytarilishini kafolatlash;
- v) tamaki, alkogol mahsulotlari, qurol-yarog' ishlab chiqarish va qimor biznesi, narkotik vositalarni noqonuniy aylanmasini moliyalashtirish;
- g) shariat man etgan tadbirkorlikning boshqa shakllarini moliyalashtirish huquqiga ega emasligi aniq ko'rsatib o'tilgan.

Mazkur omillarga urg'u berilishi Tojikistonda islomiy bankchilikni joriy etishda uzoq muddatli istiqbol e'tiborga olingani, islomiy banking an'anaviy bankingning teng muqobili bo'la olishi uchun islomiy banklar faoliyatida har qanday salbiy holatlarga yo'l qo'ymaslik, jamiyatda islomiy banklari mijozlari, xususan aholining musulmon qatlami manfaatlarini e'tiborga olinishi muhim ekanligi idrok etilgan.

Qonunda davlat hokimiyati idoralarining islomiy kredit tashkilotlari bilan munosabatlariga doir alohida modda kiritilgan bo'lib, davlat idoralari ularning faoliyatiga aralashish huquqiga ega emasligi qat'iy ta'kidlangan.

Mazkur qonun bilan islomiy banklar amalga oshirishi mumkin bo'lgan bank amaliyotlari belgilab qo'yilgan. Bank amaliyotlari ko'lami tafsiloti tavsiflangan bo'lsa-da, ayrim amaliyotlar bo'yicha bahsli holatlar ham mavjud. Masalan, ushbu qonunda islomiy bank faktoring⁶ va forfeyting⁷ amaliyotlarini moliyalashtirishi mumkinligi ko'rsatib o'tilgan. Qozog'iston Respublikasi qonunchiligida aynan mana shu ikki amaliyot – faktoring va forfeytingni islomiy bank amaliyotlari tarkibiga kiritish man etilgan. Tojikiston islomiy bank qonunchiligida an'anaviy banklar "islomiy darcha"lar ochishi mumkin ekanligi ko'rsatilgani holda, Qozog'iston qonunchiligida bu qonun man etilgan.

Tojikiston islomiy bank qonunchiligining yana bir o'ziga xos tarafi – Milliy bank (regulyator) huzurida islomiy bank xizmatlari bo'yicha maslahat Kengashining mavjudligi hisoblanadi (Qozog'istonda bunday organ mavjud emas). Qonun bilan maslahat Kengashiga bir qator vakolatlar berilgan:

1) Tojikiston Milliy bankining islomiy moliyalashtirish bilan bog'liq me'yoriy huquqiy hujjatlarini ishlab chiqishda qatnashish;

2) islomiy bank faoliyatiga doir turli masalalarda Milliy bankka maslahatlar berish;

3) islomiy kredit tashkilotlari o'z mijozlariga islomiy bank xizmatlari ko'rsatish jarayonidagi moliyalashtirish amaliyotlarining islomiy moliyalashtirish tamoyillariga muvofiqligini tahlil qilish va tasdiqlash;

4) islomiy moliyalashtirish masalalari bo'yicha jismoniy va yuridik shaxslarga maslahatlar berish va h.k.

2022-yildagi ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatda birinchi islomiy bank "Tavhidbank" yilni 4,4 mln.somoni miqdorida sof foyda bilan yakunlagan va o'tgan yilga nisbatan 4 baravar ko'proq o'sishni ta'minlagan. 01.01.2022-yil holatiga bank nizom jamg'armasi o'tgan yilga nisbatan 31%ga oshgan va 109,2 mln.somoni tashkil etdi. So'nggi uch yilda bank kapitali 70%ga o'sdi. Bank aktivlari 185,6 mln.somoni tashkil etgan holda, 34% o'sishga erishdi⁸.

Xulosa va takliflar.

1975-yilda tuzilgan Islom Taraqqiyot banki boshqa musulmon mamlakatlarda islomiy banklar tuzish uchun asos yaratdi. ITB dan so'ng 1975-yilda xususiy Dubay Islamic Benk (Dubai Islamic Bank) ro'yxatga olindi. 1977-yilda yana uchta islomiy bank o'z faoliyatini boshladi: Faysal Islamic Benk of Idjipt (Faisal Islamic Bank of Egypt), Faysal Islamic Benk of Sudan (Faisal Islamic Bank of Sudan) va Kuveyt Faynens Xaus (Kuwait Finance House).

Misir islomiy banklar rivojlanishini boshlab bergan mamlakatdir. Sudanda islomiy banklar dastlab maxsus idora usuliga ega edilar, keyinchalik hukumat almashishi natijasida ushbu imtiyoz bekor bo'ldi. Turkiya dunyoviy konstitutsiyaga ega bo'lgani xolda siyosat va dinning aralashishiga yo'l qo'ymaydi. Eron va Pokiston o'z bank tizimlarini butkul islomiy andozaga almashtirdilar. Malayziya esa islomiy bank tizimini samarali faoliyat yuritishiga erishdi.

Mamlakatimizda ham islomiy moliyani joriy etish bo'yicha bir muncha harakatlar amalga oshirilmoqda. Xalqaro tajribada ko'rib o'tganimizdek, islomiy banklar faoliyatini samarali yo'lga qo'yish uchun bir qator nuqtalarga e'tibor qaratish lozim bo'ladi:

- islomiy bankchilik uchun alohida qonun qabul qilinishi (Tojikiston tajribasi) mavjud qonunchilikka qisman o'zgartirish (Qozog'iston tajribasi)ga nisbatan samarali ekanligini ko'plab ekspertlar e'tirof etishdi, chunki, ko'p sonli o'zgartirishlar kutilayotgan samaradorlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi;

- islomiy banklarni tartibga solish vakolati berilgan davlat organi qoshida alohida sho'ba (boshqarma, departament)ning mavjudligi moliya muassasalar faoliyatini qo'llab-

⁶ Faktoring – to'lovsizlik xatarini qabul qilish yo'li bilan mahsulot (bajarilgan ish, ko'rsatilgan xizmat) sotib oluvchidan to'lovni talab qilish huquqini sotib olish

⁷ Forfeyting – mahsulot (bajarilgan ish, ko'rsatilgan xizmat) xaridorining qarz majburiyatini sotuvchining aylanmasiga olmaslik sharti ila veksel sotib olish yo'li bilan to'lab berish

⁸ <https://asiaplustj.info/ru/news/tajikistan/economic/20220127>

quvvatlashda va bank xizmatidan foydalanuvchilar manfaatini himoya qilishda muhim hisoblanadi;

- islomiy banklarga muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun davlat byudjetidan uzoq muddatli foizsiz qarzlarni berilishi (Malayziya tajribasi) bank sektorining ushbu muqobil yo'nalishi yuqori darajada qo'llab-quvvatlanishini ta'minlaydi;

- islomiy banklardagi shariat kuzatuv kengashlari ishini tashkil etish serxarajat faoliyat bo'lgani sababli, biror-bir vakolatli idora yoki muassasa qoshida markazlashgan shariat kengashi ishini tashkillashtirish moliyaviy muassasalar ishini yengillashtiradi va faoliyat davomiyligini ta'minlaydi;

- tajriba tariqasida mamlakatimizda Islom Taraqqiyot bankining muassasalari kapitali ishtirokida islomiy bankni tashkil etishga (Bosniya tajribasi) erishish Markaziy Osiyoda mazkur sektor rivojlanishida muhim qadam bo'lar edi.

Adabiyotlar /Литература / Reference:

Ali, Muazzam. (1988) *A Framework of Islamic Banking. In Directory of Islamic Financial Institutions, edited by John R. Presley, 3-13. London: Groom Helm.*

Connors, Jane. (1988) *Towards a System of Islamic Finance in Malaysia. In Islamic Law and Finance, edited by Chibli Mallat, 57- 67. London: Graham & Trotman.*

Gieraths, Christine. (1990) *Pakistan: Main Participants and Final Financial Products of the Islamization Process. In Islamic financial Markets, edited by Rodney Wilson, 171-195. London and New York: Routledge.*

Xaron S., Van N. Azmi. (2014) *Islomiy moliya va bank tizimi. Falsafasi, tamoyillari va amaliyoti. Toshkent. O'zbekiston NMIU. -51-b.*

Абдурахмонов И.Х. (2020) *Ислом суфуртаси ёки такафулнинг назарий-иқтисодий асослари ва амалга ошириш моделлари таҳлили. "Moliya va bank ishi" илмий журнал. № 6 (2020). 80-87.*

Абдурахмонов, И. (2024). *Суфурта бозори: замонавий ҳолат ва ривожланиш тенденциялари. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, 2(4), 309-319.*

Абдурахмонов, И. (2024). *Такафул: назарий-иқтисодий асослар ва амалга ошириш механизмлари. Iqtisodiy Taraqqiyot Va Tahlil, 2(6), 298–307.*

Абдурахмонов, И.Х. (2024). *Суфурта соҳасининг самарадорлигини баҳолаш. TADQIQOTLAR. UZ, 37(6), 161-167.*

Закон (2014) *Республики Таджикистан. Об исламской банковской деятельности. Ахбори Маджлиси Оли Республики Таджикистан, №7.*

Қонун (2009) *Қозғоғистон Республикасининг "Банк ва банк фаолияти тўғрисида"ги қонунига қўшимча ва ўзгартиришлар (12.02.2009 йилдаги №133-IV рақамли қонунга қўра) adilet.zan.kz/rus/docs/Z950002444).*